

JINOYAT PROTSESSIDA TINTUV: SHAXS HUQUQLARI VA QONUNIY MANFAATLARINI KAFOLATLASH

Akmalov Hamid Akmalovich

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Yuridik fakulteti 3-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jinoyat protsessida tergov harakati hisoblangan tintuv o'tkazish tushunchasi va tintuv o'tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari masalalari atroficha tahlil qilingan. Bunda tintuv tushunchasi bo'yicha jinoyat-protcessual qonunchiligidagi belgilangan normalar, soha mutaxassislari va olimlarning bu boradagi qarashlari o'rganilib, mualliflar tomonidan ushbu tushuncha ta'rifi ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Tintuv, olib qo'yish, tergovchi, xolislar, tintuv bayonnomasi.

Tintuv ish uchun ahamiyatga ega bo'lgan ashylar va hujjatlarni qidirib topish va olib qo'yish, shuningdek qidirilayotgan shaxslar va murdalarni izlab topish maqsadida bino, inshoot, transport, joy hududi yoki ayrim fuqarolarni majburiy tekshirishdan iborat bo'lgan tergov harakati hisoblanadi. Tintuv har doim nomuayyan xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni aynan qaysi narsalar va hujjatlar topilishi va olib qo'yilishi u boshlangunga qadar aniq bo'lmaydi. Bundan xulosa qiladigan bo'lsak, ushbu jarayon mavzuning dolzarb ekanligini anglatadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi, bu eng og'ir va sermashaqqat tergov harakatlaridan biri bo'lib, uni o'tkazish tergovchidan ko'p mehnat va keng bilimlarni, yetarlicha tajriba hamda mazkur ishni jinoyat-protcessual qonunchilik normalariga muvofiq tashkil etish va o'tkazish uchun tegishli qobiliyatlarni talab qiladi.

Tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga tergovchi faoliyati qaratiladi. U tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha tegishli huquqlar va majburiyatlarga ega bo‘ladi va ularga muvofiq harakat qiladi. Mazkur faoliyat shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatlash uchun zarur.

Tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlarini ta’minlashda tergovchining protsessual mustaqilligi ulkan rol o‘ynaydi. Tergovchi tintuv va olib qo‘yishning asosiy subyekti hisoblanadi, binobarin, u shaxsning mazkur huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlovchi asosiy subyekt sifatida ham maydonga chiqadi. Tergovchi – davlat vakili bo‘lib, u tergovni o‘tkazish jarayonida qonunga qat’iy muvofiq ravishda harakat qilishi lozim. Tergov o‘tkazishda ayblanuvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga og‘ishmay rioya qilish uning burchidir.

Maqolaning asosiy maqsadi tintuv tushunchasi va uni o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarinining protsessual kafolatlarini aniq yoritish, uni bat afsil ochib berishdan iborat. Ushbu mavzuni tahlil qilish va yoritishda boshqa mualliflar va olimlarning ham fikrlarini atroflicha o‘rganib chiqdik. Ko‘plab mualliflar tomonidan berilgan tintuvning tergov harakati sifatidagi ta’riflari umumiy mohiyatga ega bo‘lsa-da, ularda farqli jihatlarni kuzatish mumkin. G‘.Abdumajidov ta’kidlaganidek, “Surishtiruvchi va tergovchi biror turar joy, xizmat, ishlab chiqarish binosida yoki o‘zga joyda yoxud biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsa yoki hujjatlar bor deb o‘ylash uchun yetarli ma’lumotga ega bo‘lgan taqdirda tintuv o‘tkazishga haqlidir” [1, 16-b.]. O‘zbekiston yuridik entsiklopediyasida esa, tintuv va olib qo‘yishga JPK normalari mazmunidan kelib chiqqan holda ta’rif beriladi [2, 347-348-b.].

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protcessual kodeksi “Protess ishtirokchilari” tushunchasini keng ma’noda talqin qilib, mazkur tushunchaga jinoyat ishini yuritishda ishtirok etuvchi barcha shaxslarni kiritadi.

Tintuv – mazmuni daliliy va yo‘naltiruvchi ma’lumotlar manbalarini (jinoyat qurollari, jinoyat yo‘li bilan topilgan yoki ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalar, qimmatli va boshqa ashyolarni), shuningdek qidirilayotgan shaxslar va murdalarni yoki ularning qayerda joylashganligi haqidagi ma’lumotlarni topish va olish maqsadida turar-joylar, yer maydonlari, muayyan shaxslar va ularning narsa va buyumlarini majburiy tekshirishga qaratilgan tergov harakatidir. Jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasi va klassifikatsiyasiga doir masala ham munozaralidir. Maxsus adabiyotlar va 1959-yilda qabul qilingan Jinoyat-protsessual kodeksida jinoyat protsessi ishtirokchilari tushunchasiga jinoyat ishida o‘z huquq va manfaatlarini himoya qiluvchi shaxslar kiritilgan. Bu borada boshqa olimlarning fikrlarini o‘rganadigan bo‘lsak, V.V.Mozyakova ta’kidlashicha, olib qo‘yish – jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma’lum bo‘lib, ularni qidirishning hojati bo‘lman Hollarda surishtiruvchi, tergovchi va sud tomonidan qo‘llanadigan chora hisoblanadi. Tintuv doimo majburlov xarakteriga ega bo‘lgan tergov harakati bo‘lib, uning vazifalari jinoyat ishiga dahldor bo‘lgan narsa va hujjatlarni, tirik shaxslar va murdalarni, jinoyat yo‘li bilan topilgan pullar va boshqa qimmatliklarini binolardan, yoki ularni yashirgan deb taxmin qilingan shaxslarga tegishli joylardan qidirib topish va olingan natijalarni bayonnomada qayd etishdan iboratdir [3, 259-b.]. R.S.Belkin esa tintuv tushunchasiga boshqacha yondashgan. Uning fikriga ko‘ra, tintuv ish bo‘yicha haqiqatni o‘rnatish uchun ahamiyatli bo‘lgan ob’ektlarni, jinoyat qurollarini, jinoiy yo‘l bilan topilgan boyliklarni, shuningdek, ish uchun ahamiyatli boshqa narsa va hujjatlarni topishdan iborat bo‘lgan tergov harakatidir. U yashiringan shaxslar va murdalarni topish uchun ham o‘tkazilishi mumkin [4, 47-b.]. A.R.Ratinov tomonidan berilgan ta’rif umume’tirof etilgan bo‘lib, unga ko‘ra, tintuv mohiyati bu, yashiringan shaxslarni, shuningdek ish uchun ahamiyatli narsalarni topish va olib qo‘yish maqsadida turar-joylar, binolar, yer maydonlari va alohida shaxslarni majburiy kuzatishdan iborat bo‘lgan tergov harakatidir [5, 7-b.]. Tintuv va olib qo‘yish shaxsning kostitutsiyaviy huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq harakat

bo‘lganligi uchun huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari (ayniqsa jinoyat-qidiruv xodimlari) qonun talablari asosida harakat qilishlari kerak [6, 38-b.].

Ayrim manbalarda yuqorida keltirilgan ikki ta’rifning uyg‘unlashgan mazmundagi izohlarini ham kuzatishimiz mumkin. Misol uchun V.A.Obraztsov va I.F.Panteleyevlar “Tintuv - jinoyat qurollari, jinoiy yo‘l bilan topilgan boyliklar, shuningdek, tergov qilinayotgan jinoyat ishi uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa narsa va hujjatlarni topish va olish maqsadida turar joylarni, binolar va boshqa ob’ektlarni, shuningdek alohida fuqarolarni majburiy tekshirishda ifodalanadigan tergov harakatidir” degan ta’rifni bergenlar [7, 331-b.]. Shaxsni tintuv qilishda uning buyumlari (sumka, jomadonlari) va kiyimlari ham nazarda tutilganligi bois, yuqorida keltirilgan tintuv qilinadigan ob’ektlar doirasini kengaytirilgan hollarini kuzatish mumkin. Mazkur holat A.A.Zakatov va S.G.Lyubimchevlar tomonidan berilgan quyidagi ta’rifda o‘z ifodasini topgan: “Tintuv – ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalarni, shuningdek yashiringan shaxslar va murdalarni topish va olish maqsadida turar joylarni, yer maydonlari, transport vositalarini, fuqarolar yoki ularning kiyimlarini majburiy tartibda tekshirishdan iborat bo‘ladigan tergov harakatidir” [8, 269-b.]. G‘.Shodiyev ta’biri bilan aytganda, “tintuv o‘tkazish jarayonida, yuqorida qayd etilgan kamchiliklar yuzasidan jinoyat-protsessual qonunchilikka o‘z vaqtida o‘zgartirish va ko‘shimchalar kiritilsa, shaxsning huquq va qonuniy manfaatlari kafolatlanishiga imkon yaratiladi” [9, 120-121-b.].

Bir qarashda yuqorida keltirilgan ta’riflar tintuv tergov harakatining asosiy belgilarini yoritib berganga o‘xshasa-da, qidiriladigan ob’ektlarning doirasini yetarlicha ko‘rsatib berilmagan. Tergov amaliyotida ko‘p hollarda tintuv tergov harakati narkotik moddalarni topish maqsadida ham o‘tkaziladi. Bunday moddalarni topish va olib qo‘yish ushslash vaqtida shaxsiy tintuv, turar-joy va hududlarda tintuv o‘tkazish bilan amalga oshirilishi mumkin. G‘.Shodiyev bu haqda shunday yozadi: “tintuv olib qo‘yishdan o‘z maqsadi va o‘tkazish tartibiga ko‘ra farqlanadi: 1) tintuvda qanday ob’ektlar qidirilayotganligi, ular qayerdaligi noma’lum bo‘lsa, olib qo‘yishda predmetning individual belgilari, uning qayerda (kimda) ekanligi ma’lum

bo‘ladi; 2) olib qo‘yishni o‘tkazish uchun (faktik) asos sifatida faqat dalillar tan olinsa, tintuvda – hatto tezkor-qidiruv tadbirlari davomida olingan ma’lumotlar ham asos bo‘lishi mumkin; 3) olib qo‘yishda qidiruv harakatlari man qilinadi, tintuvda esa, aynan ular ko‘zda tutiladi” [10].

Yuqorida aytib o‘tilgan ta’riflardan kelib chiqib tintuv tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin:

“Tintuv – mazmuni daliliy va yo‘naltiruvchi ma’lumotlar manbalarini (jinoyat qurollari, jinoyat yo‘li bilan topilgan yoki ish uchun ahamiyatli bo‘lgan narsalar, qimmatli va boshqa ashyolarni), shuningdek qidirilayotgan shaxslar va murdalarni yoki ularning qayerda joylashganligi haqidagi ma’lumotlarni topish va olish maqsadida turar-joylar, yer maydonlari, muayyan shaxslar va ularning narsa va buyumlarini majburiy tekshirishga qaratilgan tergov harakatidir”.

Shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilish talablari tintuv o‘tkazish bilan bog‘liq har bir holatda o‘z-o‘zidan qo‘llanishi mumkin emas, chunki ularni qo‘llashga yuzaki yondashish oxir-oqibat teskari samara beradi – qonuniylikning buzilishiga olib keladi. Shu bois, bunga yo‘l qo‘ymaslik uchun, tergovchilarga tintuv o‘tkazishni tartibga soluvchi huquqiy normalarni qo‘llashga ijodiy yondashish imkoniyati ta’milanishi lozim. Mazkur imkoniyat “tergovchining protsessual mustaqilligi” deb ataladigan huquqiy institut yordamida ta’milanadi. Bu institut tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minalashning muhim kafolati hisoblanadi.

Shu o‘rinda tabiiy bir savol tug‘iladi: tintuv o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash tergovchi uchun asosiy va yetakchi funksiya hisoblanadimi? Bu savolga faqat bitta javob bo‘lishi mumkin: tintuv o‘tkazayotgan tergovchi uni shunday o‘tkazishi lozimki, bunda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini buzilishiga yo‘l qo‘yilmasin. Tergovchi tintuv yoki olib qo‘yish o‘tkazishda shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minalashi shart. Uning bu vazifalari ahamiyati shu bilan belgilanadiki, fuqaro protsessual huquqni amalga oshirish yo‘li bilan intilayotgan maqsadga erishish ayni holda ko‘rsatilgan tergov

funktsiyalarini bajaruvchi tergovchining tegishli harakat orqali amalga oshiriladi. Faqat shu mansabdor shaxs o‘z vakolatlari doirasida mazkur tergov funksiyalarining mohyati bo‘yicha qaror qabul qilish huquqiga ega bo‘ladi.

Tergovchining aytib o‘tilgan vazifalari shaxs huquqlari va qonuniy manfaatlari bilan bevosita bog‘liq. Bu aloqa sxemasi quyidagi ko‘rinishga ega: shaxs huquqi – tergovchining majburiyati. Shaxsning har bir huquqi bilan tergovchining uni ta’minlashga qaratilgan majburiyati mos keladi.

Tintuv o‘tkazishda tergovchining mustaqilligi fuqarolarning turar joy daxlsizligiga bo‘lgan huquqini so‘zsiz va har tomonlama ta’minlashiga erishish ayniqsa muhimdir. Biz yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu shaxsning barcha ma’rifatli davlatlar tomonidan e’tirof etilgan va kafolatlanadigan asosiy huquqlaridan biri hisoblanadi. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 12-moddasida quyidagi qoida mustahkamlangan: “Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o‘zboshimchalik bilan aralashish, uy-joyi daxlsizligiga, uning yozishmalaridagi sirlarga yoki uning nomus va sha’niga o‘zboshimchalik bilan tajovuz qilinishi mumkin emas. Har bir inson xuddi shunday aralashuv yoki tajovuzdan qonun orqali himoya qilinish huquqiga ega”.

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, tergovchi tintuvni xolislar va boshqa shaxslar ishtirokida o‘tkazadi. Xolislar sifatida u shunday shaxslarni taklif qilishi lozimki, tintuvda ularning ishtiroki biron-bir ma’lumotlar oshkor etilishiga olib kelmasin. Xolislar sifatida titilayotgan shaxsni tanimaydigan va u bilan qo‘shti xonadonlarda yashamaydigan fuqarolar taklif qilinsa, ayni muddao bo‘ladi.

Xulosalar

Mazkur mavzuni yoritishda ko‘plab adabiyotlarga va olimlarimizning fikrlariga murojaat etdik. Ularning ilmiy izlanishlarini o‘rgangan holda o‘z yondashuvimiz bo‘yicha metodlar asosida mavzuni yoritishga harakat qildik. Izlanishlar natijasida quyidagi xulosa va takliflarimizni keltirib o‘tishni joiz deb topdik. Tintuv o‘tkazilayotgan shaxsning protsessual majburiyatlarini tahlil etishda bizda qator savollar paydo bo‘ldi. Jumladan, tintuv o‘tkazilayotgan shaxs qidirilayotgan mulk

yoki ashyoni berishga majburmi va tergovchi talabini bajarishdan bosh tortganligi uchun unga nisbatan qandaydir choralarni qo'llash mumkinmi? Yuqorida ta'kidlanganidek, tintuv majburiy xarakterga ega va odatda ayblovga doir dalillarini toplashga qaratilgan. Ya'ni, tintuvning maqsadlaridan biri shaxsning jinoyat sodir qilganini fosh etish hisoblanadi. Buni amalga oshirish esa protsessual majburlashni qo'llash imkoniyati bilan ta'minlanadi. Biroq, bunday majburlash qandaydir huquqbuzarlik uchun jazo chorasi hisoblanmaydi, balki qidiruv tadbirlarini ta'minlash hamda tintuv maqsadiga erishish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, ko'tarilgan mazkur dolzarb masalani yechishda aybsizlik prezumpsiyasidan ham kelib chiqish lozim. Uning mazmuniga ko'ra, gumon qilinuvchi (ayblanuvchi) o'zining aybsizligini isbot qilishga majbur emas. Shuning uchun shaxsga ularni fosh qiluvchi ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini yuklashga yo'1 qo'yilmaydi. Bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasi hamda JPKning 23-moddasiga zid bo'lib, jumladan unda shunday deb belgilab qo'yilgan: "Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas". Shuningdek, amaldagi qonunchilikda hech kim o'ziga qarshi guvohlik berishga majbur emasligi belgilangan. Nazarimizda, ko'rib chiqilayotgan vaziyatda "guvohlik berish" tushunchasi so'zma-so'z talqin etilishi kerak emas. O'ziga qarshi ko'rsatma berishdan bosh tortish imkoniyati bilan birga u o'zini-o'zi ayplashga qarshi boshqa kafolatlarni, jumladan, ayblov dalillarini yig'ishga xizmat qilmaslik, shuningdek shaxsni jinoyat sodir etishda fosh qiluvchi ashyolarni taqdim etishdan bosh tortish huquqini o'z ichiga olishi lozim. Yuqorida qayd etilganlarni hisobga olgan holda o'zida yoki uyida tintuv o'tkazilayotgan shaxsga ish uchun ahamiyatli bo'lgan narsa yoki hujjatlar taqdim etish bilan bog'liq majburiyat yuklatilishi mumkin emas degan xulosaga kelish mumkin. Bizning nazdimizda, tergovchi taklifiga ko'ra qidirilayotgan ashyolarni berish tintuv o'tkazilayotgan shaxsning xohishi yoki xohlamasligiga bog'liq bo'lib, bu uning ixtiyoriga ko'ra amalga oshirilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdumajidov G. Problemi sovershenstvovaniya predvaritelnogo rassledovaniya. [Problems of improving the preliminary investigation]. Tashkent: Science, 1975. – p.16.
2. O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas'ul R.A.Muxitdinov va boshqalar; Ma'sul muharrir: N.Toychiyev. [Legal encyclopedia of Uzbekistan / Responsible for publication R.A. Mukhiddinov and others; Responsible editor: N. Toychiyev]. - Tashkent: Adolat, 2010. - p.347-348.
3. Kommentariy k Ugolovno - protsessualnomu kodeksu Rossiyskoy Federatsii / Pod obsh. red. V.V.Mozyakova. [Commentary on the Criminal Procedure Code of the Russian Federation. V.V.Mozyakova]. -Moscow: 2002. p.259.
4. Kriminalistika. Kratkaya entsiklopediya. Avtor sostavitel R.S. Belkin. [Forensics. Concise encyclopedia. Author compiled by R.S. Belkin]. -Moscow: Scientific publishing house “Bolshaya Russian Encyclopedia”, 1993. p.47.
5. Ratinov A.R. Obisk i viyemka. [Ratinov A.R. Search and seizure]. -Moscow, 1961. p.7.
6. Moskolkova Yu.A. Oxrana prav i zakonnix interesov lichnosti. - Yaroslavl, 1984. – S. 58; Rijakov A.P. Sledstvenniye deystviya. - M., 1997. - S. 38. [Moskolkova Yu.A. Protection of the rights and legitimate interests of the individual. - Yaroslavl, 1984. – P. 58; Rizhakov A.P. Investigative actions. - M., 1997. - P. 38].
7. Kriminalistika: Uchebnik / Pod. prof. V.A. Obraztsova. [Criminology: Textbook / Ed. prof. V.A. Obraztsova]. - Moscow: Lawyer, 1995. p. 331.
8. Kriminalistika: Uchebnik/ Pod red. Prof. A.G. Fillipova (otv. redaktor) i prof. A.F. Volinskogo. [Criminology: Textbook / Ed. Prof. A.G. Fillipova (responsible editor) and prof. A.F. Volinsky]. - Moscow: Spark, 1998. p. 269.
9. Shodiyev G‘. Tintuv o'tkazishda shaxs huquq va qonuniy manfaatlarining protsessual kafolatlari // TDYuI Axborotnomasi. [Shodiyev G. Procedural guarantees

of a person's rights and legal interests during a search]. TSIL Bulletin. – 2009. – No. 3. p. 120-121.

10. Akmalov Hamid Akmal o‘g‘li. (2023, Aprel). YANGILANAYOTGAN KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQ VA ERKINLIKHLARI, SUD-HUQUQ SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali. UIF-2023: 8.2|2181-3035|№22.